

GENDER TENGLIGINING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI

Norqulova Umida Xo'razovna

Ichki ishlar vazirligi Samarqand akademik litsey o'qituvchisi

Annotatsiya:

Nikoh va oila ko'plab asrlar mobaynida har qanday jamiyat ijtimoiy tuzilmasining ajralmas qismlari bo'lib kelgan. Nikoh va oila insoniyat jamiyatini takror ishlab chiqaruvchi va uning barqarorligini ta'minlovchi mustahkam ijtimoiy institutlardir. Oila eng muhim ijtimoiy muassasalardan biri bo'lib, amalda aynan u orqali gender vazifalari anglanadi va amalga oshiriladi. Oila andozalari faqat muayyan holatlar va qarorlarga bog'liq bo'lib qolmay, balki u davlat siyosatining ta'siri va quyi pog'onada jamoalarning qo'llabquvvatlashi, shuningdek an'analar, ijtimoiy qadriyatlar va iqtisodiy muhit orqali ham shakllanadi. Aynan oila biz o'zimizni erkin va bimalol tutishimiz mumkin bo'lgan va har birimiz uchun qadrdon joy bo'lib qolmokda. Oila jamiyat ko'rsatkichi bo'lib, uning ahvoli ko'p jihatdan farovonlikka va sog'lom ruhiy muhitga bog'liqdir. Oila – bu murakkab ijtimoiy muassasa bo'lib, oila ichki munosabatlari va er-xotin o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishida ko'p narsa, birinchi navbatda, milliy madaniyat, tarixiy an'analar, ijtimoiy iqtisodiy sharoitlar, shaxs omillari bilan belgilanadi. Oila bola voyaga yetadigan asosiy makon va insoniy munosabatlar barcha turlarining o'chog'idir.

Kalit so'zlar : Oila, teng huquqlilik, BMT, gender ekspertiza, salbiy kamsitish, ijobiy kamsitish.

Ayollar va erkaklarning teng huquqliligi masalalari BMTning bir qator asosiy hujjatlarida aks etgan. Gender tengligi prinsipi 1948 yilgi Inson huquqlari Umumjahon deklarasiyasida, 1966 yilgi Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktda, 1979 yilgi Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha turlariga barham berish to'g'risidagi konvensiyada mustahkamlangan. Ana shu barcha hujjatlar O'zbekiston Respublikasi tomonidan imzolangan va ratifikatsiya qilingan. Ulardan asosiylarini tahlil qilamiz va ayollarning mehnat sohasidagi to'la teng huquqliligini ta'minlashda asoslanish mumkin bo'lgan jihatlarini alohida ajratib ko'rsatamiz.

“Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risida”gi 1979-yilgi konvensiyada ish bilan bandlik sohasida jinslarning teng

huquqliligi muammosiga jiddiy ahamiyat berilgan. Bu talablarga rioya etmaslik Konvensiya tomonidan jins belgisiga ko'ra kamsitish sifatida talqin qilinadi. BMTning Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasining (CEDAW) 1- moddasida "xotin-qizlarga nisbatan kamsitish" tushunchasi belgilab qo'yilgan bo'lib, u oilaviy ahvolidan qat'i nazar xotin-qizlarning inson huquqlari hamda siyosiy, iqtisodiy, madaniy, fuqarolik yoki har qanday boshqa sohalardagi erkinliklari erkaklar va ayollarning teng huquqliligi asosida e'tirof etilishi, ularning bu huquqlar va erkinliklardan foydalanishi yoki amalga oshirishini susaytirishga yoxud yo'qqa chiqarishga qaratilgan, jins belgisiga ko'ra har qanday farqlash, istisno etish yoki cheklashni bildiradi. Xotin-qizlarning ahvoriga doir IV Umumjahon konferensiyasining Sa'yohatlar platformasida ko'plab siyosiy partiyalar va davlat tuzilmalari hamon xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishiga to'sqinlik qilib kelayotganliklari ta'kidlanadi. Ba'zi bir mamlakatlarda, shu jumladan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar yuz berayotgan mamlakatlarda ham qonun chiqaruvchi organlarda ayollarning vakillik soni jiddiy kamayishi kuzatilmoqda. Shu tarzda, "xotin-qizlarga nisbatan kamsitish" tushunchasida gender tengligi prinsipining mohiyati, uning mazmuni ifodalanganidir. Konvensiyaning 2- moddasida xotin-qizlarga nisbatan barcha shakllardagi kamsitishlarni qoralash va davlatning unga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan majburiyatlari to'g'risidagi qoida aks etgan. Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning oldini olish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur: - erkaklar va ayollarning teng huquqligi prinsiplarini milliy qonun hujjatlariga kiritish va uning amalga oshirilishini ta'minlash; - xotin-qizlarga nisbatan har qanday kamsitishlarga taqiq qo'yish; - xotin-qizlar huquqlarining erkaklar bilan teng asosda huquqiy jihatdan (shu jumladan sud tomonidan) samarali himoya qilinishini ta'minlash; - davlat organlari va muassasalari, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'rish; - xotin-qizlarga nisbatan kamsitish hisoblangan qonunlar, urfodatlar va amaliyotni aniqlab, ularni o'zgartirish. Xotin-qizlarga nisbatan ular huquqlarini cheklab qo'yishda ifodalanadigan "salbiy kamsitish" tushunchasi Konvensiyada "ijobiy kamsitish" tushunchasi bilan to'ldirilgan bo'lib, bu ayollarga ularning reproduktiv funksiyalarini ta'minlash bilan bog'liq muayyan imtiyozlar va afzalliklar berishda ko'rinadi. Erkaklarda bunday anatomik va fiziologik qobiliyatlar yo'qligi tufayli bunday imtiyozlar va afzalliklarning erkaklarga tatbiq etilmasligi ularni kamsitish sifatida qaralmasligi

kerak. Konvensiya 4-moddasining 2-bandida ishtirokchi davlatlar tomonidan onalikni muhofaza qilishga qaratilgan maxsus choratadbirlar, shu jumladan Konvensiyada ifodalangan chora-tadbirlar ko'rilishi ko'rsatib o'tilgan va bu ham kamsitish hisoblanmaydi. Xalqaro standartlarda kamsitish tushunchasi kengaytirilgan va aniqlashtirilgan. Masalan, mehnat sohasiga qo'llaniladigan bo'lsa, "kamsitish" tushunchasi irqi, terisining rangi, jinsi, diniy belgilariga, siyosiy e'tiqodi, milliy mansubligi yoki ijtimoiy kelib chiqishiga asoslangan va oqibati tugatish bilan yakunlanadigan har qanday farqlash, istisno etish yoki ustunlik berish sifatida yoxud kasb-kor ta'limini olish, mehnat qilish yoki turli mashg'ulotlar bilan shug'ullanish, shuningdek mehnat sharoitlari borasidagi imkoniyatlar va murojaatlar tengligining buzilishi sifatida huquqiy andoza bilan belgilanadi. Davlat oqibati mehnat va mashg'ulotlar sohasidagi imkoniyatlar va murojaatlar tengligini tugatish yoki buzish bilan tugaydigan har qanday boshqa farqlash, istisno etish yoki ustunlik berishni ish beruvchilarning vakil tashkilotlari va xodimlar bilan maslahatlashib, "kamsitishlar" sifatida belgilab qo'yishga haqlidir. Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha turlariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq ishtirokchi davlatlar ayollarga erkaklar bilan teng sharoitlarda hukumat siyosatini shakllantirish, amalga oshirishda ishtirok etish hamda davlat lavozimlarini egallash, shuningdek davlat boshqaruvining hamma pog'onalarida barcha davlat vazifalarini amalga oshirish huquqini ta'minlashlari shart (7-modda). Mazkur Konvensiyaning 11-moddasida ishtirokchi davlatlar ish bilan ta'minlash sohasida xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish uchun barcha tegishli chora-tadbirlarni ko'rishlari, erkaklar va ayollarning teng huquqliligi asosida bir xil huquqlarni, chunonchi: - barcha kishilarning ajralmas huquqi sifatida mehnat qilish huquqini; - ishga yollashda bir xil imkoniyatlarga ega bo'lish huquqini, shu jumladan ishga yollash paytida saralab olish uchun bir xil mezonlar qo'llanishini; - kasb yoki ish turini erkin tanlash, lavozimida ko'tarilish va ish bilan ta'minlanish kafolati, shuningdek ishdagi barcha imtiyozlar va sharoitlardan foydalanish, kasb-kor tayyorgarligi va qayta tayyorgarlikdan o'tish, shuningdek shogirdlik, yuksak darajadagi kasb-kor tayyorgarligi va muntazam ravishda qayta tayyorgarlikdan o'tish huquqini; - teng miqdorda pul mukofoti olish, shu jumladan imtiyozlarga ega bo'lish, bir xil qiymatdagi mehnatga nisbatan teng sharoitlarga ega bo'lish, shuningdek ish sifatini baholashga bir xil yondashish huquqini; - ijtimoiy ta'minot huquqini, shu jumladan pensiyaga chiqqan, ishsiz qolgan, kasallangan, nogiron bo'lgan, qarilik tufayli pensiyaga chiqqan taqdirda va mehnat qobiliyatini yo'qotgan



boshqa hollarda shunday huquqni, shuningdek haq to'lanadigan ta'tilga chiqish huquqini; - salomatligini saqlash va xavfsiz mehnat sharoitlariga ega bo'lish, shu jumladan tug'ishni davom ettirish funksiyasini saqlab qolish huquqini. Xalqaro hamjamiyat tomonidan mehnat sohasida ayollar uchun ham, erkaklar uchun ham kafolatlanadigan huquqlarning butun yig'indisi ushbu ro'yxatning o'zi bilan tugamaydi. Lekin aynan ana shu ro'yxat xotin- qizlarning mehnat sohasida teng huquqiy imkoniyatlarga va murojaat qilish huquqiga ega bo'lishini himoya qilish borasida huquqiy jihatdan yutuqlarga erishganligining eng lo'nda ifodasi hisoblanadi. Kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik xalqaro mehnat huquqida mehnat hamda mashg'ulotlar sohasida imkoniyatlar va murojaatlar tengligini tasdiqlash uchun zarur shart sifatida e'tirof etilgan. Mehnat siyosatida asos bo'luvchi normalarda ifodalangan huquqiy talablar ham, shu bilan bir qatorda ularning amal qilishini keyinchalik tatbiq etish uchun belgilangan yangi hujjatlar qabul qilayotganda namoyon bo'ladigan rivojlanish tamoyili ham hisobga olinmog'i lozim. Turmushga chiqish yoki onalik tufayli ayollarga nisbatan bo'ladigan kamsitishlarning oldini olish va ularga samarali mehnat qilish huquqini kafolatlash uchun maxsus chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, bular BMTning Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi 1979 yilgi konvensiyasida o'z ifodasini topgan. Ishtirokchi davlatlar quyidagilarni amalga oshirish uchun tegishli choratadbirlar ko'rishlari lozim: - jazo choralari qo'llanishni tahdid qilishni, homiladorlik yoki tug'ishga asoslanib ishdan bo'shatishni yoki ishdan bo'shatayotganda oilaviy ahvolini sabab qilib kamsitishni taqiqlash; - homiladorlik yoki tug'ish bo'yicha avvalgi ish joyini yo'qotmagan holda haq to'lanadigan ta'tillar yoki ijtimoiy nafaqa beriladigan ta'tillar, qarilik yoki ijtimoiy nafaqalar joriy etish; - zarur qo'shimcha ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishini rag'batlantirish, bunda ota-onalarga oiladagi vazifalarini bajarishni mehnat faoliyati bilan qo'shib olib borish va ijtimoiy hayotda qatnashish imkoniyatini yaratish, chunonchi bunga bolalarni parvarish qiladigan muassasalar tarmog'ini tashkil etish va kengaytirish orqali erishish; - ayollar salomatligi uchun zararli ekanligi isbotlangan ish turlarida ularning homiladorligi davrida alohida himoya qilinishini ta'minlash. Konvensiyada xususan qishloq joylarida istiqomat qiluvchi xotin-qizlar duch keladigan alohida muammolarga katta e'tibor qaratilgan. Konvensiyaning 14-moddasiga binoan ishtirokchi davlatlar qishloq joylarida xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish yuzasidan barcha chora-tadbirlarni ko'rishlari, chunonchi: - ularning rasmiy va norasmiy ta'lim olish va tayyorgarlikdan o'tishning



barcha turlariga ega bo'lish huquqini ta'minlashlari; - yollanib ishlash orqali yoki mustaqil mehnat faoliyati orqali teng iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lishlari, shuningdek jamoa faoliyatining barcha turlarida ishtirok etishlarini ta'minlashlari va hokazo. Konvensiyaga muvofiq xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilishga taalluqli qonun hujjatlari ilmiy-texnikaviy bilimlar asosida vaqtivaqti bilan ko'rib chiqilishi, shuningdek ular qanchalik zarurligiga qarab qayta ko'rib chiqilishi, bekor qilinishi yoki kengaytirilishi zarur. BMTning Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi 1979 yilgi konvensiyasining aynan ana shu normasi qonun hujjatlarini muntazam ravishda olib boriladigan tadbirlar tizimi sifatida gender ekspertizasidan o'tkazish uchun xalqaro huquqiy asos bo'lib hisoblanadi.

RAHBARIY ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksakma'naviyat – yengilmaskuch. – T., «Ma'naviyat», 2008 – 176 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., «O'zbekiston», 2011. – 440 b.
3. Karimov I.A. Onayurtimiz baxtli qiboliva buyuk kelajagiyo'lidaxizmat qilish eng oliy saodatdir. – T., «O'zbekiston», 2015. – 302 b.
4. Karimov I.A. Ozodlik xavosidanto'yibnafas olgan xalqo'zyo'lidan xech qachon qaytm aydi. – T., «O'zbekiston», 2016. – 28 b.
5. Karimov I.A. Hayotsinovlaridatoblangan Qashqadaryo eliharqandayyuksakmarranie gallashga qodir. – T., «O'zbekiston», 2016. – 28 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., «O'zbekiston», 2016. – 56 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., «O'zbekiston», 2017. – 48 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T., «O'zbekiston», 2017. – 104 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., «O'zbekiston», 2017. – 488 b.

ASOSIYADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2016. – 76 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik prosessual kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - Toshkent: Adolat, 2015.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - Toshkent : Adolat, 2015.
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - Toshkent : Adolat, 2015.
5. Karaxodjayeva D.M. va boshq. Fuqarolik va oila huquqi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. T.: "Ilm ziyo", 2013.

QO'SHIMCHADABIYOTLAR

1. Raxmonqulov X.R., Oqyulov O.O. "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga Sharh 1 - jild". Toshkent "VYeKTOR - PRYeSS" 2010 yil.
2. Zokirov I.B., Husanov O.T., Baratov M.H., Imomov N.F. Fuqarolik huquqi (Umumiy qism) Toshkent - "Ilm Ziyo" - 2006 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Mulkchilik to'g'risidagi qonunga sharhlar. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrirlar: Rahmonqulov H.A., Abdusalomov M.I. Toshkent - Adolat 1994 yil 128 b.
4. Oqyulov O. Intellektual mulk obyektlari bilan savdo - sotiqni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari. (Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo munosabatlarini huquqiy ta'minlash muammolari) T - TDYuI - 2004 yil.

ELEKTRONTALIMRESURLARI

1. <http://akadmvd.uz> (O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi)
2. <http://lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)
3. <http://eduportal.uz> (Multimediya umumta'lim dasturlarni rivojlantirish markazi)
4. <http://www.ima.uz> (Intellektual mulk agentligi)
5. <http://www.academy.uz> (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi)
6. <http://www.ziynet.uz> (Axborot ta'lim tarmog'i)
7. <http://www.nuu.uz> (Mirzo Ulug'bek nomidagi Uzbekiston milliy Universiteti)
8. <http://www.tsil.uz> (Toshkent Davlat Yuridik Universiteti).